

BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMIDA ASOSIY VOSITALARNING TURKUMLANISHI VA HISOBINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

CLASSIFICATION AND SPECIFIC FEATURES OF ACCOUNTING FOR FIXED ASSETS IN THE ACCOUNTING SYSTEM

¹**Aliyev Sherzod
Abdixomidovich**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.*
G-mail: sherzod.aliyev1986@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Buxgalteriya hisobida asosiy vositalarni turkumlash ularning iqtisodiy mazmuni va ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon asosiy vositalardan samarali foydalanish, ularning amortizatsiyasini to'g'ri hisoblash, eskirish darajasini aniqlash, balans qiymatini haqqoniy aks ettirish hamda moliyaviy tahlilni chuqurroq amalga oshirish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida asosiy vositalarning mavjud tasnif tizimi o'rganilib, amaldagi buxgalteriya standartlari asosida ularni yanada takomillashtirish yo'nalishlari aniqlangan. Shuningdek, asosiy vositalar hisobini optimallashtirish, ularning samaradorligini oshirish va moliyaviy hisobotlarda ishonchlilikni ta'minlashga qaratilgan xulosalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - The classification of fixed assets in accounting plays a crucial role in determining their economic substance and significance within the production process. This process enables the efficient utilization of fixed assets, accurate calculation of depreciation, identification of the degree of wear and tear, truthful reflection of their balance value, and more in-depth financial analysis. During the research, the existing classification system of fixed assets was studied, and directions for its improvement were identified based on current accounting standards. In addition, conclusions and practical recommendations were developed to optimize the accounting of fixed assets, enhance their efficiency, and ensure the reliability of financial reporting.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ asosiy vositalar, ishlab chiqarish vositalari, yordamchi vositalar, ma'muriy-maishiy vositalar, transport vositalari, ijara obyektlari, doimiy foydalaniladigan vositalar, qisman foydalaniladigan vositalar, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

❖ fixed assets, production assets, auxiliary assets, administrative and household assets, vehicles, lease objects, permanently used assets, partially used assets, International Financial Reporting Standards (IFRS).

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning samarali faoliyati, eng avvalo, uning moddiy-texnik bazasiga, ya'ni asosiy vositalarining mavjudligi va ularning oqilona boshqarilishiga bevosita bog'liq. Asosiy vositalar ishlab chiqarish

jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularning tarkibini to'g'ri belgilash, hisobda to'g'ri aks ettirish va moliyaviy hisobotlarda aniq ko'rsatish – buxgalteriya hisobi tizimining asosiy vazifalaridan biridir [1].

Buxgalteriya hisobida asosiy vositalarni turkumlash ulardan foydalanish,

amortizatsiyani hisoblash, eskirishni aniqlash, balans qiymatini to'g'ri ko'rsatish hamda ularni moliyaviy tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda asosiy vositalarning iqtisodiy vazifasi, foydalanish muddati, qiymati va ishlatilish yo'nalishiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratilishi hisobning aniq va shaffof yuritilishini ta'minlaydi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, buxgalteriya tizimida turkumlash faqat nazariy tasnif emas, balki amaliy boshqaruv vositasidir. Aynan to'g'ri turkumlangan asosiy vositalar orqali korxonaning aktivlari samarali nazorat qilinadi, soliq solish bazasi aniqlanadi va moliyaviy holat to'g'ri baholanadi. Shu sababli, buxgalteriya hisobida asosiy vositalarni to'g'ri va asosli ravishda tasniflash har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

A.A.Karimov, J.E.Kurbanbayev, S.A. Jumanazarovlar tomonidan asosiy vositalar haqida quyidagicha fikrlar keltirib o'tilgan "Asosiy vositalar ko'p hollarda korxona aktivlarini asosiy qismini tashkil qiladi va shuning uchun moliyaviy hisobotda uning moliyaviy holatini ko'rsatishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Agar korxonaga kelgusida aktiv bilan bog'liq iqtisodiy foyda kelib tushishiga ishonch bo'lsa va aktiv qiymatini aniq baholash mumkin bo'lsa, asosiy vositalar aktiv sifatida tan olinadi" [2].

G.Q.Turayeva B.E.Matrasulov, S.I.Matkuliyeva, A.A.Abduvohidov, A.B.Muxametovlar o'z asaralarida asosiy vositalar bo'yicha quyidagicha to'xatalib o'tgan ya'ni "Asosiy vositalar ob'ektlari buxgalteriya hisobida statistik hisobot talablariga muvofiq, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish bo'yicha guruhlanadi (masalan, noishlab chiqarish bo'yicha tarmoqlarga bo'linadi: sog'liqni saqlash, uyjoy, kommunal xo'jaligi va boshqalar.) va bundan tashqari funktsional guruhlar bo'yicha: binolar, inshootlar, ishchi

mashina va asbob-uskunalar va boshqalar)" [3].

5-son «Asosiy vositalar» nomli buxgalteriya hisobining milliy standartining 3a-bandiga asosan, "asosiy vositalar - korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlardir" [4] deyilgan. Asosiy vositalar hisobini yuritishda korxona rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini mustaqil ravishda nisbatan kamroq miqdorda belgilashga haqlidir. Albatta asosiy vositalar qiymatining eng kam chegarasi "Hisob siyosati"da belgilab qo'yishi kerak.

Mazkur olimlardan biri K.B.Urazov bo'lib, u o'z asarlarida asosiy vositalarni quyidagicha turkumlashni taklif etgan: "Asosiy vositalar korxonalarning moddiy texnika bazasini tashkil etuvchi mehnat qurollari va vositalarini o'z ichiga oladi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Binolar – sex, ombor, laboratoriya, idora, garaj, o't o'chirish deposi va shu kabi mehnat sharoitini yaratib beruvchi, tovar-moddiy boyliklar butligini ta'minlovchi obyektlar. Binolar tarkibiga ularni normal ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo'lgan barcha kommunikatsiyalar, ya'ni isitish, ventilyatsiya, suv va gaz ta'minoti, lift, yong'inga qarshi va signalizatsiya qurilmalari, telefon aloqasi simlari tizimlari ham kiritiladi.

2. Inshootlar – ochiq ayvonlar, devorlar, suv minoralari, temir yo'l shahobchalari, nasos stansiyalar, kanallar, suv havzalari, asfaltlangan yo'llar va yo'lkalari.

3. Uzatish qurilmalari – elektr liniyalari, gaz, suv, bug' o'tqazuvchi quvurlar va boshqalar.

4. Mashina va uskunalar – issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi generatorlar, dvigatel va transformatorlar,

stanoklar, issiqlik pechlari, tikuv, yig'uv, dazmollash, saralash mashinalari, kranlar, kompressorlar, o'lchov tarozilari.

5. Hisoblash texnikasi – kompyuterlar va ularga o'rnatiladigan periferiya qurilmalari (printer, skaner, modem va boshqalar).

6. Transport vositalari – yuk va odam tashuvchi avtomashinalar, vagonlar, parovozlar, teplovozarlar, paroxodlar, tramvaylar, trolleybuslar, avtobuslar, pritseplar, samolet va vertoletlar va boshqa turdagi asosiy vositalar" [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Asosiy vositalar hisobi tadqiqida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Asosiy vositalar bu korxona faoliyatida uzoq muddat davomida foydalaniladigan

moddiy aktivlar bo'lib, ular bir martalik sarf mahsuloti sifatida emas, balki bir necha yillar davomida xizmat qiladi. Ular ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatishga yoki ijaraga berishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Asosiy vositalarning bir necha xususiyatlari quyidagicha bo'ladi:

- ❖ Ular iqtisodiy jihatdan uzoq muddat xizmat beradi.

- ❖ Qiymati ma'lum darajada katta bo'ladi.

- ❖ Foydalanish muddati davomida eskirish (amortizatsiya) bilan qiymati asta-sekin kamayadi.

- ❖ Ular modda (materiya) sifatida mavjud bo'ladi (masalan, bino, uskuna, transport vositasi va h.k.).

Asosiy vositalar turli belgilarga ko'ra tasniflanadi va har bir turi o'ziga xos funksional ahamiyatga ega bo'lib quyida keltirib o'tilgan jadval bu to'g'risida batafsil to'xtalib o'tilgan.

1-jadval

Asosiy vositalarni turkumlanishi*

<i>Turi</i>	<i>Ahamiyati</i>
<i>Binolar va inshootlar</i>	<i>Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun muhit yaratadi</i>
<i>Mashina va uskunalar</i>	<i>To'g'ridan-to'g'ri mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi</i>
<i>Transport vositalari</i>	<i>Yuk va xodimlarni tashishda ishlatiladi</i>
<i>Ishlab chiqarish inventarlari</i>	<i>Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi</i>

* Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlangan.

Asosiy vositalarni turli mezonlar bo'yicha guruhlash mumkin. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan tasnifiy mezonlar va ularning asosiy guruhlari keltiriladi.

Asosiy vositalarni foydalanish maqsadi bo'yicha quyidagi turkumlashni amalga oshirsak bo'ladi ya'ni:

- ❖ Ishlab chiqarish vositalari – mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishlatiladigan uskuna, mashina, asbob-uskunalar.

- ❖ Yordamchi vositalar – operatsiyalarni qo'llab-quvvatlashda (masalan, hosildorlik, material tashish, saqlash).

- ❖ Ma'muriy-maishiy vositalar – ofis jihozlari, mebel, kompyuterlar, aloqa vositalari

va boshqa ma'muriy faoliyatda foydalaniladigan vositalar.

- ❖ Transport vositalari – avtomobillar, yuk mashinalari, traktorlar, yuk ko'taruvchi moslamalar va boshqalar.

- ❖ Ijara obyektlari – agar korxona boshqa tarafdin ijaraga olgan yoki o'zida ijaraga berayotgan vositalar bo'lsa.

Shuningdek asosiy vositalarni ishlatilish holati bo'yicha quyidagi ikki turga ya'ni:

- ❖ Doimiy foydalaniladigan vositalar – har qanday sharoitda uzoq muddat ishlatiladi (binolar, katta mashinalar va h.k.).

- ❖ Qisman foydalaniladigan vositalar – ma'lum davr yoki alohida holatlarda

qo'llaniladigan vositalar (masalan, ehtiyot qismlar, zaxira uskuna).

Biz bilamizki asosiy vositalar jism ko'rinishda moddiy qiymatga ega bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak uni jism ko'rinishidan kelib chiqqan holda ham ya'ni:

❖ Qattiq moddiy vositalar — binolar, konstruksiyalar, metal strukturalar.

❖ Yumshoq moddiy vositalar — tekstil bilan bog'liq uskunalar yoki komponentlar (masalan, maxsus yostiq, pardalar) kabi ko'rinishda ham turkumlashimiz mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari asosiy vositalarni qayta taqsimlanish imkoniyatidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda:

❖ Ajralib bo'ladigan vositalar — agar bir qismi (masalan, nasos, motor) alohida obyekt sifatida ishlatilsa;

❖ Ajralmaydigan vositalar — butun obyekt sifatida foydalaniladi, tarkibiy qismi alohida obyekt deb ajratib bo'lmaydi (masalan, bino, konstruksiya).

Buxgalteriya hisobi nazariyasidan kelib chiqqan holda eskirish usullarini qo'llanishini inobatga olib turkumlash imkoniyatimiz ham mavjud.

Ba'zi korxonalar vositalarni turkumlashni amortizatsiya metodlari, eskirish tezligi va iqtisodiy jihatdan foydaliligi kabi omillar asosida ham qiladi. Masalan:

❖ Tez amortizatsiyaga duchor bo'ladigan vositalar;

❖ Sezilarli amortizatsiyagacha kamroq ta'sir qiladigan vositalar.

Har bir turkumlash mezonini aniq belgilanishi kerak — masalan, "transport vositasi" yoki "ishlab chiqarish vositasi" deganda nimani nazarda tutilishi lozim.


Turli mezonlar bo'yicha turkumlash bir-birini inkor qilmasligi lozim; ya'ni vosita bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish vositasi ham bir qismi qo'llab-quvvatlovchi vosita bo'lishi mumkin — bu holatda mezonlar ustuvorligi aniqlanishi kerak.

Hisobda vosita kirim qilinganda, uning turkumi, amortizatsiya normasi, foydalilik muddati va boshqa xususiyatlar aniqlanadi.

Turli standartlar (milliy va xalqaro) asosida turkumlash qoidalari bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobiga oid normativlari va milliy standartlar asosida "asosiy vositalar" bo'yicha maxsus kategoriyalar belgilangan.

Mamlakatimiz sharoitida asosiy vositalarni tasniflashning soha yoki tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda shuningdek ma'lum bir sohaning faoliyat xususiyati hamda o'ziga xos usullarda amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, asosiy vositalar natural-moddiy tarkibiga ko'ra quyidagi chizmada keltirilgan guruhlariga bo'linadi:



1-rasm. Asosiy vositalarning natural-moddiy tarkibiga ko'ra turkumi¹

¹Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yer amaldagi qonunchilikka binoan korxonaga mulk tarzida berilgan yer maydonidir. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 17-moddasiga binoan, «yuridik shaxslar Yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin». Yerning qiymatiga uni xarid qilishda ko'chmas mulk agentliklariga to'lanadigan komission to'lovlar, advokatlik xizmati uchun haq, xarid qilishdagi soliq to'lovlari, drenaj qiymati, yerni tozalash va boshqa xarajatlar qo'shiladi.

Yerni obodonlashtirish bo'yicha kapital sarflar tarkibiga yerning unumdorligini oshirish, avtomobil va boshqa transport turlariga to'xtash joylarini barpo etish hamda shunga o'xshash boshqa xarajatlar kiradi.

Imoratlar hamda binolarga ishlab chiqarish korpuslari, sexlar, ustaxonalar, boshqarma binolari, omborxonalar, turar-joy binolari va boshqa ishlab chiqarish, ma'muriy-xo'jalik va ijtimoiy-maishiy maqsadlardagi obyektlar, shuningdek ulardan to'g'ri foydalanish uchun zarur bo'lgan jami kommunikatsiya vositalari (isitish, yoritish, shamollatish, suv-gaz ta'minoti tizimi, ichki telefon va signalizatsiya vositalari, lift xo'jaligi) kiradi.

Inshootlarga mehnat jarayoni va uning natijalarini o'zgartirmagan holda ishlab chiqarish jarayonlarining texnikaviy yoki umumiy vazifalarini bajarishga xizmat qiladigan obyektlar (neft va gaz quduqlari, shaxta yo'llari, avtomobil yo'llari, ko'priklar, estakadalar, suv omborlari va boshqalar) kiradi.

Uzatuvchi moslamalarga mashina-dvigateldan ish mashinalariga elektr, issiqlik, mexanik energiyani uzatishga, shuningdek suyuq va gazsimon moddalarni bir obyektidan boshqa obyektga yetkazib berishga xizmat qiladigan qurilmalar (elektr uzatish yo'llari,

quvur yo'llari, issiqlik va gaz tarmog'i hamda boshqalar) kiradi.

Mashina va jihozlar asosiy vositalarning eng asosiy turi hisoblanadi va o'z navbatida quyidagi guruhlardan tarkib topadi:

❖ kuch mashina va jihozlari elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaradigan yoki uni mexanik harakat energiyasiga aylantirib beradigan generator-mashinalar, dvigatel mashinalar (qozonxonalar, bug' dvigatellari, turbinalar, kuch transformatorlari va boshqalar)dir;

❖ ish mashinalari va jihozlari mehnat predmetlariga mexanik, termik, kimyoviy yoki boshqa yo'sinda texnologik ishlov berishga, ularni ishlab chiqarish jarayonida qo'zg'atish, qazib olish, eritish, tayyorlashga xizmat qiladigan qurilmalar (stanoklar, apparatlar, agregatlar)dir;

❖ o'lchov va rostlash asboblari hamda qurilmalari va laboratoriya jihozlari foydalaniladigan texnika ishidagi turli parametr (ko'rsatkich)larni o'lchash, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, xom-ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar sifatini tekshirish, namlik darajasi, shovqin ta'siri va boshqalarni o'lchashda ishlatiladi. Ularga manometrlar, tarozilar, mikroskoplar, dispatcherlik nazorati va boshqalar kiradi;

❖ hisoblash texnikasi ma'lumotlarni elektron hisoblash mashinalarida qayta ishlaydigan vositalardir. Ularga kompyuterlar, printerlar va boshqa kompyuter vositalari kiradi;

❖ boshqa mashina va jihozlarga yuqorida sanab o'tilmagan mashina va jihozlar (o't o'chirish va boshqa maxsus mashinalar) kiradi.

Transport vositalari kishilar hamda yuk va turli maqsadlardagi narsalarni tashishga mo'ljallangan harakat vositalari (temir yo'l, suv, avtomobil, kommunal transporti va muhim neft quvur yo'llari)dir.

Asbob va uskunalar qo'l mehnati jarayonida ishlatiladigan yoki ish qismlarini kuchaytirish, oshirish uchun mashinaga

biriktiriladigan vositalar (elektrodrellar, vibratorlar)dir.

Ishlab chiqarish inventarlari ishlab chiqarish jarayonini yengillashtirishda ishlatiladi.

Xo'jalik inventari idora (ofis) ishlarini va xo'jalikni yuritishda zarur bo'lgan mehnat vositalaridir.

Ish hayvonlari va mahsuldor chorva har bir yetilgan mol (ot, ho'kiz, sigir)lar bo'lib, alohida inventar obyekti sifatida hisobda aks ettiriladi.

Ko'p yillik daraxtlar alohida xiyobon, park, bog'dagi miqdori va yoshidan qat'iy nazar ekilgan daraxtlar guruhidir.

Jahon amaliyotida shunday holat mavjudki, unga ko'ra asosiy vositani xarid qilishda tomonlar o'rtasida tuziladigan shartnoma bandlarida mazkur asosiy vositani ta'mirlash xarajatlari bandi kiritib qo'yiladi. Bu degani korxona o'zi uchun sotib olayotgan asosiy vositasini, asosiy vositaning foydalanish muddatidagi ta'mirlash xarajatlari bilan xarid qiladi va shartnomada alohida bir bandda ko'rsatib o'tiladi.

Misol uchun, aytaylik korxona mol yetkazib beruvchidan asosiy vosita xarid qilgan. Asosiy vositaning xarid qiymati 150.000.000 so'm deb tasavvur qilaylik. Xarid qiymati o'z ichiga quyidagi qiymatlarni ya'ni asosiy vositaning haqiqiy xarid qiymati 120.000.000 so'm va uni har besh yilda mol yetkazib beruvchi tomonidan ko'rsatib boriladigan ta'mirlash xarajat 30.000.000 so'm qiymatdan iborat. Asosiy vositaning foydali xizmat yil 15 yil. Yuqoriadgi holatdan shu narsa ma'lumki asosiy vositani har besh yilda ta'mirlash xarajatlari 10.000.000 so'mga to'g'ri keladi.

Mazkur holatda xaridor tomonidan asosiy vositani kirim qilishda uning boshlang'ich qiymatini shartnomada ko'rsatilgan umumiy summa bo'yicha ya'ni 150.000.000 so'm qilib belgilaydi va shu bo'yicha tegishli hisob-varaqalarda yozuvlarni qayd etadi va uni foydali xizmat qilish yili bo'yicha eskirish hisoblab boradi.

Biroq asosiy vositalarni mazkur tartibda hisobini yuritish foydalanuvchilarga manfaatli bo'lamsligi va ularga ishonchli to'g'ri ma'lumot taqdim etmasligi mumkin, chunki shartnomada ko'rsatib o'tilgan summa faqat asosiy vositaga tegishli bo'lmasdan balki uning ichida ta'mirlash xarajatlari bilan aks ettirilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, foydalanuvchilarga har tomonlama manfaatli bo'lishini inobatga olib asosiy vositaga va unga qilinadigan ta'mirlash xarajatlarga ikkita alohida komponent sifatida qarab hisob-varaqalarda aks ettirish va eskirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hisob siyosatiga o'zgartirish qilib 0131 – "Mashina va asbob-uskunalar ish qobilyatini saqlab turish" schyoti va 0231 – "Mashina va asbob-uskunalar ish qobilyatini saqlab turishga hisoblangan eskirish" schyotini kiritish lozim.

Mazkur schyot asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lgan saqlab turish bo'yicha eskirish xarajatlarini to'g'ri va aniq hisoblash, schyotlar bo'yicha to'g'ri bog'lanish imkoniyatini beradi.

Asosiy vosita harid qilinganda:

Dt 0130- "Mashina va asbob-uskunalar" - 120 000 000 so'm

Dt 0131- "Mashina va asbob-uskunalar ish qobilyatini saqlab turish" 30.000.000 so'm

Kt 6010- "Mol yetkazib beruvchilarga qarzlari"- 150 000 000 so'm.

Eskirish hisoblanganda:

Dt 2010- "Mashina va asbob-uskunalar eskirish harajati"

Dt 2010 – "Mashina va asbob-uskunalar ish qobilyatini saqlab turishga hisoblangan eskirish harajati"

Kt 0230- "Mashina va asbob-uskunalar eskirish"

Kt 0231 – "Mashina va asbob-uskunalar ish qobilyatini saqlab turishga hisoblangan eskirish"

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, asosiy vositalarning turkumlanishi ularni samarali boshqarish, texnik holatini nazorat qilish va

kapital qo'yilmalarni rejalashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Asosiy vositalar hisobini to'g'ri tashkil etish ularning keying hisobini aniq va to'g'ri yuritilishini ta'minlashga, shuningdek foydalanuvchilar uchun shaffof va qaror qabul qilishlari uchun yetarli ma'lumotlar taqdim etishga xizmat qiladi.

To'g'ri turkumlangan asosiy vositalar korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlarda aniqlikni ta'minlash hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tsak bo'ladiki jamiyat faoliyatida asosiy vositalar muhim rol o'ynaydi va daromadni hosil qiluvchi asosiy mehnat vositasi hisoblanadi Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilishimiz mumkin

bo'ladiki asosiy vosita – har qanday tashkilotning moddiy negizini tashkil qiluvchi, uzoq muddat xizmat qiladigan va iqtisodiy foyda keltiradigan resursdir. Ular orqali korxonalar samarali ishlaydi, raqobatbardosh mahsulot yaratadi va moliyaviy barqarorlikka erishadi. Asosiy vositalar nafaqat ishlab chiqarishning moddiy asosini tashkil qiladi, balki korxonaning iqtisodiy barqarorligi, samaradorligi, texnologik rivojlanishi va ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlaydigan omil sifatida muhim o'rin tutadi. Ularni samarali boshqarish, modernizatsiya qilish va ekspluatatsiya qilish orqali har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatida yuqori natijalarga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Buxgalteriya hisobi to'g'risida», 22-modda. 13.04.2016. <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>
2. A.Karimov, J.Kurbanbayev, S.Jumanazarov. Buxgalteriya hisobi. Iqtisod-moliya 2019-y.
3. G.Q.Turayeva B.E.Matrasulov, S.I.Matkuliyeva, A.A.Abduvohidov, A.B.Muxametov. Buxgalteriya hisobi. Texnikum va kasb-hunar kollejlari uchun darslik 2023 y.
4. «Asosiy vositalar» nomli 5-son buxgalteriya hisobining milliy standarti. <https://lex.uz/mact/-821041>
5. K.B.Urazov. Buxgalteriya hisobi va audit. O'quv qo'llanma. O'qituvchi nashriyoti 2004-y.